

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 24 697 tani tashkil etadi, shundan 20 520 tasi yoki 83,1 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan kamayish 2,3 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 3,6 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda)



Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	24 697	20 610	20 520
2024	25 290	21 373	21 287
2023	25 491	21 534	21 427
2022	31 257	27 320	27 218
2021	28 386	24 616	24 512

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Termiz shahrida – 19,8 foiz, Denov – 11,3 foiz, Jarqo'rg'on – 7,5 foiz, Sherobod – 6,9 foiz va Sho'rchi tumanlarda – 6,5 foizdan faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Termiz shahrida – 88,2 foiz va 87,7 foiz, Denov – 82,7 foiz va 82,3 foiz, Jarqo'rg'on – 84,7 foiz va 84,2 foiz hamda Sherobod – 85,0 foiz va 84,8 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Termiz shahri	4 880	4 304	4 281
Denov tumani	2 798	2 313	2 304
Jarqo'rg'on tumani	1 855	1 571	1 562
Sherobod tumani	1 710	1 453	1 450
Sho'rchi tumani	1 592	1 309	1 306
Qumqo'rg'on tumani	1 592	1 276	1 272
Termiz tumani	1 577	1 414	1 404
Sariosiyo tumani	1 390	1 066	1 060
Angor tumani	1 261	1 072	1 066
Oltinsoy tumani	1 234	979	977
Uzun tumani	1 175	935	932
Qiziriq tumani	1 069	886	881
Muzrabot tumani	999	810	807
Boysun tumani	935	723	721
Bandixon tumani	630	499	497

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-dekabr holatiga 34,3 foizni (41,1 foiz va 41,2 foiz) tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,1 % (14,4 % va 14,3 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 8,0 % (9,4 % dan).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turi	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 973	1 940	1 933
Sanoat	2 980	2 961	2 939
Qurilish	1 879	1 862	1 852
Savdo	8 464	8 464	8 450
Tashish va saqlash	625	620	616
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 759	1 752	1 752
Axborot va aloqa	409	403	402
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	575	433	432
Boshqa turlar	6 033	2 175	2 144

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, 20 610 ta faol tijorat korxonalaridan 13 414 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar viloyatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	13 414	65,1
Xususiy korxonalar	4 030	19,5
Oilaviy korxonalar	2 929	14,2
Aksiyadorlik jamiyati	16	0,1
Boshqalar	221	1,1

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 492 ta korxonalardan 65 tasi qo'shma korxonalar va 427 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2023-yilning mos davriga nisbatan 136 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 157 tadan 291 taga, (o'sish 134 taga), axborot va aloqa sohasida 2 tadan 19 taga (o'sish 17 taga) va qurilish sohasida 24 tadan 30 taga (o'sish 6 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turi	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	492	65	427
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35	12	23
Sanoat	70	23	47
Qurilish	30	6	24
Savdo	291	17	274
Tashish va saqlash	15	1	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	1	12
Axborot va aloqa	19	-	19
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	1	4
Boshqa turlar	14	4	10

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 306 ta korxona bilan Afg'oniston respublikasi egalladi. Bu viloyatdagi chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 62,2 foizini tashkil etdi. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (7,9 %), Tojikiston (6,9 %), Turkiya (6,1 %), Xitoy (5,3 %) va Qozog'iston (1,8 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	492	65	427
Afg'oniston	306	14	292
Rossiya	39	12	27
Tojikiston	34	8	26
Turkiya	30	7	23
Xitoy	26	8	18
Qozog'iston	9	3	6
Pokiston	9	-	9
Eron	6	4	2
Gruziya	6	-	6
Buyuk Britaniya	4	-	4
Hindiston	3	1	2
Belorussiya	3	-	3
Armaniston	3	3	-
Janubiy Koreya	3	1	2
Ozarbayjon	2	-	2
Turkmaniston	2	1	1
Ukraina	1	-	1
Yaponiya	1	1	-
Qirg'iz Respublikasi	1	-	1
Boshqa davlatlar	4	2	2

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-oktabrdagi "Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxona va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot korxona va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

O. Raxmonov
55 451-80-00 (76-50)

Maznil:

190108, Termiz shahar,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
